

## ZAMONAVIY AXLOQIY TARBIYANING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI.

**Fazliddinova Ruhshona Akmaljon qizi.**

*Shahrisabz davlat pedagogika institute Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Murodova Aziza Zafar qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Anostatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axloqiy tarbiyaning ahamiyati, uning jamiyat va shaxs rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Buhungi kunda globallashuv, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar axloqiy tarbiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada axloqiy tarbiyaning milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligida rivojlanishining dolzarbligi yoritilib, bu borada samarali yondashuvlar tavsiya etiladi.

**Abstract:** This article analyzes the importance of modern moral education, its impact on the development of society and the individual, as well as its achievements and shortcomings. Today, globalization, technological progress, and social changes have a significant impact on the process of moral education. The article highlights the relevance of the development of moral education in harmony with national and modern values, and recommends effective approaches in this regard.

**Аннотация:** В статье анализируется значение современного нравственного воспитания, его влияние на развитие общества и личности, а также его достижения и недостатки. Сегодня глобализация, технический прогресс и социальные изменения оказывают существенное влияние на процесс нравственного воспитания. В статье подчеркивается актуальность развития нравственного воспитания в гармонии с национальными и современными ценностями, а также рекомендуются эффективные подходы в этом направлении.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy qadriyatlar, ta'lim va axloq, ijtimoiy axloq, pedagogik tarbiya, shaxsiy erkinlik, axloqy chegaralar.

**Ключевые слова:** *Нравственные ценности, образование и нравственность, общественная нравственность, педагогическое образование, личная свобода, нравственные границы.*

**Keywords:** *Moral values, education and morality, social morality, pedagogical education, personal freedom, moral boundaries.*

**Kirish:** Axloqiy tarbiya insonning shaxsiyati va jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi muhim omildir. Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyot, globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar axloqiy tarbiya jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy axloqiy tamoyillar o‘rtasida muvozanatni saqlash muhim vazifaga aylangan. Bugungi kunda yoshlar ochiq fikrlilik, tolerantlik, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy adolat tamoyillarini o‘rganmoqda. Shunga qaramasdan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning ta’siri ba’zan milliy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy axloqiy tarbiya insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, inson huquqlari, ijtimoiy mas’uliyat va texnologik rivojlanish bilan bog‘liq axloqiy muammolarni tushunishga yordam beradi. Biroq, u turli ijobiy yutuqlar bilan birga, muayyan kamchiliklarga ham ega hisoblanadi.

Zamonaviy axloqiy tarbiya insonni yetuk shaxs sifatida shakllantirish bilan birga, jamiyat rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

U an’anaviy axloqiy me’yorlarni saqlab qolgan holda, zamon talablariga mos ravishda rivojlana oladimi?

Ushbu maqolada zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Umuman olganda, zamonaviy axloqiy tarbiya –bu insonning shaxsiy fazilatlarini, jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlarini va qadriyatlarini shakllantirish jarayonidir. U an’anaviy axloqiy tamoyillarga asoslangan bo‘lsa-da, zamonaviy hayot talablariga mos ravishda rivojlanadi. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning asosiy bir nechta jihatlari mavjud bo‘lib, ulardan biri - bu global va milliy qadriyatlarining uyg‘unligi. Bu nima degani? Milliy madaniyat va urf-odatlarini saqlab qolgan holda, jahon miqyosidagi axloqiy tamoyillarga rioya qilishdir. Bundan tashqari, ochiq fikrlilik va bag‘rikenglik, turli dunyoqarash, din va madaniyatlarga hurmat bilan qarash ham o‘zini rivojlantirish va mas’uliyat ya’ni shaxsiy taraqqiyotga intilish, atrof-muhit va

jamiyat oldidagi majburiyatlarni anglash hamda oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlik ham zamonaviy axloqiy tarbiyaning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bu zamonaviy axloqiy tarbiya insonni nafaqat jamiyatning to'laonli a'zosi sifatida shakllantirishga, balki zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topishiga ham yordam beradi. Innovatsiyalar va o'zgarishlarga moslasha oladigan, ma'naviy yetuk va ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan shaxslarni tarbiyalashda zamonaviy axloqiy tarbiya muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu turli ijobiy yutuqlar bilan birga, muayyan kamchiliklarga ham ega.

Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari sifatida bir qator misollar keltirishimiz mumkin. Masalan:

Ochiq fikrlilik va bag'rikenglikning kuchayishi: Hozirgi kunda yoshlar turli madaniyatlar va dunyoqarashlarni hurmat qilishni o'rganmoqdalar. Globalizatsiya natijasida tolerantlik va inson huquqlarini hurmat qilishga bo'lgan e'tibor ortmoqda.

Texnologiyalar yordamida tarbiyaning yangi usullarini rivojlantirish: Axloqiy tarbiya internet, onlayn ta'lim platformalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ommaga yetkazilmoqda. Bu yoshlarning bilim va axloqiy saviyasini oshirishga yordam bermoqda.

Jamiyatdagi gender tengligi va adolat tushunchasining kengayishi: Gender tengligi, inson huquqlari va adolat tamoyillariga rioya qilish borasida kata yutuqlarga erishildi. Ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega bo'lishi, ijtimoiy adolatni ta'minlash axloqiy tarbiyaning muhim natijalaridan biridir.

Ekologik ongning rivojlanishi: Yosh avlod atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik mas'uliyatni tushunish borasida ko'proq ma'lumotga ega bo'lib, tabiatni asrashga ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Shaxsiy rivojlanish va mas'uliyat hissining ortishi: Zamonaviy tarbiya odamlarni o'z ustida ishlashga, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga va axloqiy qarorlar qabul qilishda chuqur o'ylashga undaydi. Yuqorida keltirilgan misollar zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari bo'lsa, tanganing ikkinchi tomoni ham yuq emas. Bunday tarbiyaning kamchiliklari deb:

Avvalo, an'anaviy qadriyatlarning yo'qolish xavfi, globalizatsiya va modernizatsiya natijasida milliy madaniyat va qadriyatlarning ayrim jihatlarini yo'qolib borishi mumkin. Ba'zi yoshlar ota-bobolarining urf-odatlariga beparvolik bilan

qarashmoqda. Bu esa o'zligimizni yuqotish kabi xavfga sabab bo'lishi mumkin. Yana bir salbiy ta'sir bu ijtimoiy tarmoqlardir. Ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri axloqiy qadriyatlarning targ'ib qilinishi, yoshlarning e'tiqodi va xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Virtual dunyoda axloqiy chegaralar ko'pincha buziladi. Bundan tashqari, materialistik qadriyatlarning kuchayishi bugungi jamiyatda moddiy boylik va tashqi ko'rinishga haddan tashqari e'tibor qaratilishi, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarning ortga surilishiga olib kelmoqda. Bu esa insonlarni mehribonlik va adolat kabi qadriyatlardan uzoqlashtiradi. Bu axloqiy tarbiya shaxsiy ma'suliyatning pasayishi, texnologiyalar rivojlanishi natijasida ayrim yoshlar mustaqil fikrlash va mas'uliyatni o'z zimmasidan olishdan qochmoqda. Masalan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar odamlarni mustaqil qaror qabul qilishdan chalg'itish mumkin. Zamonaviy axloqiy tarbiya ayrim hollarda individualizmni haddan tashqari targ'ib qiladi, bu esa oilaviy qadriyatlarning zaiflashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Zamonaviy axloqiy tarbiya bo'yicha ko'plab olimlar va mutaxassislar turli fikrlarni ilgari surgan. Ularning qarashlari pedagogika, falsafa, psixologiya va sotsiologiya nuqtai nazaridan o'rganilgan. Bunga misol sifatida Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Devey axloqiy tarbiyani amaliy tajriba asosida o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, axloqiy tarbiya faqat nazariy bilim emas, balki kundalik hayotda qo'llanishi lozim. U ta'lim jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga va axloqiy mas'uliyatni his qilishga o'rgatish muhimligini aytgan. Yana bir mashhur rus psixologi Lev Vygotskiy axloqiy tarbiyaning shakllanishiga ijtimoiy muhit va madaniyatning kata o'rni borligi ta'kidlaydi. Uning fikrivha, insonning axloqiy tushunchalari bolalikdan shakllanib, atrofdagi odamlar, ta'lim va madaniyat orqali rivojlanadi deb fikr yuritadi.

Shuningdek, o'zbek asarlarida zamonaviy axloqiy tarbiya haqida yozuvchilarimiz turli xildagi asosli fikrlarni berib o'tishgan. Ularning fikricha, yoshlarning axloqiy ongini rivojlantirish, ularda insoniy fazilatlarini shakllantirishda ta'lim tiziming o'rni haqida alohida ta'kidlashadi. Tarbiya texnologiyalari orqali axloqiy me'yotlarni singdirish muhim sanaladi. Mualliflar oilani axloqiy tarbiyaning birinchi va asosiy maktabi deb biladi. Farzandning axloqiy jihatdan barkamol bo'lishi avvalo ota-onaning namunali xulq-atvoriga bog'liq deyishadi. Yana bir asarda milliy qadriyatlarimizga tayangan holda axloqiy tarbiya berish zarurligi ta'kidlanadi. Tarbiya

milliylilik asosida bo'lsa, barqaror jamiyat shakllanishiga xizmat qilishi haqida aytib o'tiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy axloqiy tarbiya jamiyat taraqqiyotida kata rol o'ynaydi. U insonlarni ochiq fikrlilik, tolerantlik, ekologik mas'uliyat va ijtimoiy adolatga yo'naltiradi. Biroq, an'anaviy qadriyatlarning zaiflashishi, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri va materialistic qadriyatlarning kuchayishi kabi muammolar ham mavjud. Shu sababli, axloqiy tarbiya jarayoni doimiy ravishda rivojlanib borishi va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib borishi lozim. Zamonaviy tarbiya milliy qadriyatlar va zamonaviy axloqiy tamoyillarni uyg'unlashtirgan holda, insonni ijtimoiy jihatdan yetuk va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirish kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Konfutsiy ta'limoti. Konfutsiy. 150–200 bet.
2. Al-G'azzoliyning Ihyou Ulumid-din (Ma'naviy tarbiya, axloqiy poklik islomiy qarashlar haqidagi). 500–600 bet.
3. Devey Jonning “Demokratiya va Ta'lim” asari. John Dewey – Democracy and Education. Macmillan. 1916-yil. 434 bet.
4. Sh.Sh.Olimovning “Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari” “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015-yil. 228 bet.
5. Abdulaziz Abdurahmonovning “Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz” asari. “Sharq yulduzi” jurnali. 1990-yil. Maqola shaklida 1990 yil 12-sonida chop etilgan.
6. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.
7. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
8. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go'zal Aralovna Ochilova, and Sitara Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL

ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science 1.3 (2023): 15-28.

9.Ayonovna, Azamova Sitara. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.

10.Ayonovna, Azamova Sitara, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..

11.Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..

12.Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

13.Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.